

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.1.12.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

POSHOKULOVA MOHIGUL KAXRAMONOVNA

**MINTAQADA MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM TIZIMINING RIVOJLANISH
TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH**

08.00.06-Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2026-yil

UO‘K: 330.43:37.014.54(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Poshokulova Mohigul Kaхramonovna

Mintaqada maktabgacha va maktab ta’lim tizimini rivojlanish tendensiyalarini
ekonometrik modellashtirish.....5

Пошокулова Мохигул Кахрамоновна

Эконометрическое моделирование тенденций развития системы дошкольного
и школьного образования в регионе31

Poshokulova Mohigul Kahramonovna

Econometric modeling of the development trends of the preschool and school
education system in the region61

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....67

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.I.12.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

POSHOKULOVA MOHIGUL KAXRAMONOVNA

**MINTAQADA MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANISH
TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH**

08.00.06-Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2026-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4393 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.urdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xudoyorov Laziz Niyozovich

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Toshaliyeva Saodat Toxirovna

iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Tashpulatov Aybek

iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent


Yetakchi tashkilot:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.1.12.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil « 9 » 04 soat 300 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (368 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil « 28 » 03 kuni tarqatildi.
(2026 yil « 28 » 03 dagi 3 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.H. Toshqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

U.T. To'lakov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

O.A. Abdug'aniyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ilm-fan va taraqqiyotning jadallik bilan rivojlanib borishi, innovatsion loyihalarni joriy etish bilan bog'liq o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu kabi o'zgarishlar globallashtirish sharoitida barcha sohalarda kuchli raqobat muhitini shakllantirib, o'z navbatida ta'lim sohasiga nisbatan yangi talablarni qo'yimoqda. Natijada eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan ta'limning barcha bosqichlarida, ta'lim natijalarini baholashning sinergik samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy qilish orqali barcha insonlar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish muhim dolzarblik kasb etmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda esa ta'limga qarashning yana bir usuli xarajat sifatida qarashdir. O'quvchilar hamda ularning oilalari, ish beruvchilar, davlat ham ta'limga sarf-xarajat qiladi. Markaziy Osiyo va Yevropa mintaqasida hukumat xarajatlarning taxminan 12 foizi ta'limga ajratiladi. Ammo ta'lim faqatgina xarajatlarni ko'rsatuvchi bir elementdan ko'ra ko'proqdir, bu shunday investitsiyaki – o'qituvchilar va o'quvchilar, ehtimol biror mamlakatning kelajakdagi ishchi kuchi hamdir. Ta'lim har yili taxminan 9-10 foiz daromadni qaytaradi. Bu shuni bildiradiki, har bir o'quv yilida o'rtacha daromad 10 foizga oshadi¹. Lekin ta'limning qiymati faqat daromad bilangina cheklanib qolmaydi. Ta'lim tanlovlarni kengaytiradi. U ijtimoiy qadriyatlarni avlodlar o'rtasida uzatadi. Hozirgi va kelajakdagi iste'mol darajasini oshiradi. Ta'lim orqali yoshlarimiz yaxshiroq tanlovlar qilishlari mumkin – kelajak va dunyoni qadrlashni o'rganishlari mumkin. Yaqin orada o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, ta'limning yuqori darajasi ekologik iqlimga oid natijalarga foydali bo'lgan xulq-atvor va siyosat tanlovlarini yaxshilaydi. Bir yillik qo'shimcha ta'lim bu - iqlimga oid qarashlarni, hatti-harakatlarni, siyosatni tanlashni hamda yashil iqtisodiyotni oshiradi – yashil iqtisodiyotdagi o'sish taxminan 35 foiz tashkil etadi.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi” da umumiy o'rta ta'lim sifatini zamon talablariga moslashtirish yo'lida, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida darsliklarni qayta ko'rib chiqish dasturini amalga oshirish uchun davlat budjetidan 605 mlrd so'm ajratilishi, 141 mingta yangi o'quv o'rinlari yaratilishi va ularning soni 2026-yil yakuniga qadar 6.4 milliongacha yetkazish² va ta'lim sifatini oshirish vazifalari belgilangan. Yangi o'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ta'lim sohasida tubdan o'zgarishlar yuz bermoqda. O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichi ta'lim sohasidagi yondoshuvlarni o'zgartirishni talab qilmoqda. Davlat siyosati mamlakat taraqqiyoti sur'atlarini jadallashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, ta'lim sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy talablarga mos, ijodiy fikrlay oladigan, yuqori salohiyatli o'quvchilarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi davrning

¹ Psacharopoulos, G., & Patrinos, H. A. (2023, August 10). 50 years after a landmark study, returns to education remain strong. World Bank Blogs.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni

asosiy yo‘nalishlaridan biri davlatning ta’lim sohasidagi rasmiy yondashuvi va uni isloh qilish jarayonidir.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son. “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son, “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son, “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmonlari, “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son, “Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2022-yil 11-maydagi PQ-241-son farmonlar va ohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada hissa qo‘shadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy jihatdan rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda olib borilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Maktabgacha va maktab ta’lim tizimini takomillashtirish masalalari bo‘yicha mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan keng ko‘lamli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, xorij olimlaridan L.A.John, R.Baker, W.A.Smith, P.Norris, J.W.Creswell, R.M.Branch, D.H.Schunk, B.R.Joyce, M.Weil, E.Calhoun ilmiy ishlarida ta’lim tizimini takomillashtirish masalalariga katta e’tibor qaratilgan³.

MDH mamlakatlarida S.A.Lebedev, F.Bekon, I.Zimnyaya, B.N.Bodenko, N.A.Morozova ushbu mavzuda ilmiy izlanishlar olib borganlar⁴.

O‘zbekistonda R.X.Alimov, A.A.Almuradov, S.O.Xomidov, G.Y.Xodjamuratova, D.U.Jalilova, R.Y.Xaydarova, Sh.U.Jalilova⁵ ilmiy tadqiqot ishlarida ta’lim tizimini samarali tashkil etish va uning shaxsga yo‘naltirilgan

³ L. A.John Education and the Digital Economy: Econometric Perspectives. 2018 P.320. Rachel Baker and William A. Smith "Econometrics and Education: Measuring Impact in the Digital Age. 2020 P.275. P. Norris. Digital Education and Econometric Modeling. 2019.P.305. John W. Creswell. Educational Research: Planning, Conducting, and Evaluating Quantitative and Qualitative Research. Pearson Education-2014.P.673. Robert Maribe Branch. Instructional Design: The ADDIE Approach. Springer-2009.P.207. Dale H. Schunk. Learning Theories: An Educational Perspective. Pearson-2012.P.576. Bruce R. Joyce, Marsha Weil, Emily Calhoun. Models of Teaching . Pearson-2014.P.576

⁴ Лебедев С.А. Методология научного познания. М.: “Проспект”, 2015. – С.. Бэкон Ф. Новый органон. – М.: Наука, 1992. – С. 113. Лебедев С.А. Методология научного познания. М.: “Проспект”, 2015. – С., Воспитание - проблема современного образования в России: (сост., пути решения) / И. А. Зимняя, Б. Н. Боденко, Н. А. Морозова; М-во общ. и проф. образования РФ. Исслед. центр пробл. качества подгот. специалистов. - Москва, 1998 г. — 82 с. — ISBN 5-7563-0051-1

⁵ R.X. Alimov, A.A. Almuradov va S.O. Xomidov Ekonometrik modellashtirish.2019 y.Toshkent B.122. G.Y. Xodjamuratova “Raqqamli texnologiyalar: iqtisodiyot va ta’lim tizimini rivojlantirish tendensiyalari” Iqtisodiyot va ta’lim 5-son 2022. D.U. Jalilova, R. Y. Xaydarova, Sh. U. Jalilova Mamlakat ta’lim tizimida raqqamli iqtisodiyotning egallayotgan o‘rni. Science and Innovation 2023

samaradorligini oshirish masalalari o'z ifodasini topgan.

Ammo mamlakatimizda maktabgacha va maktab ta'limi tizimini rivojlantirish masalalari kam o'rganilganligi ushbu mavzuda o'z aksini topgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya mavzusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Mazkur tadqiqotning maqsadi mintaqada maktabgacha va maktab ta'lim tizimini rivojlantirishni ekonometrik modellar asosida ilmiy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

raqamli iqtisodiyot sharoitida maktabgacha va maktab ta'lim tizimini modellashtirishning nazariy asoslarini belgilash hamda ta'lim sifati va innovatsion texnologiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asoslash;

ta'lim tizimini modellashtirish tamoyillarini tizimlashtirib, ularning asosiy mezonlari va qo'llash shart-sharoitlarini aniqlash hamda O'zbekiston sharoitiga mos model yaratish;

xorijiy mamlakatlarda maktabgacha va maktab ta'limini modellashtirishda qo'llanilayotgan ekonometrik yondashuvlar (masalan, regression tahlil, panel modellari, SEM va boshqalar) asosida ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlarini baholash;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimi sifatini diagnostika qilib, mavjud resurslar, infratuzilma va ko'rsatkichlarga tayangan holda batafsil tahlil o'tkazish;

mintaqaviy darajada ta'lim tizimini indikatorlar asosida rejalashtirish mexanizmini o'rganish, indikatorlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va rivojlanish ustuvorliklarini belgilash;

maktabgacha va maktab ta'lim xizmatlarining sinergetik samaradorligini baholash ya'ni davlat, xususiy sektor hamda jamiyat hamkorligining natijadorligini o'lchash ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;

empirik modellar orqali maktabgacha va maktab ta'limi tizimini kompleks rivojlantirishning amaliy jihatlarini aniqlash, statistik va ekonometrik usullardan foydalanib hududiy farqlarni izohlash;

ta'lim sifati va xizmatlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularni guruhlarga ajratish;

maktabgacha va maktab ta'limi xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha prognoz variantlarini ishlab chiqish, ularni ssenariyli yondashuv asosida taklif qilish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Qashqadaryo viloyati hududiy ta'lim boshqarmasi tasarrufidagi ta'lim muassasalari tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini maktabgacha va maktab ta'lim tizimi sifatini oshirishni modellashtirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy

munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: tadqiqot jarayonida mantiqiy fikrlash, umumlashtirish va guruhlash, analiz va sintez, innovatsion metodlar, qiyosiy va dinamik tahlil, ekspert baholash, tizimli yondashuv, iqtisodiy-matematik prognozlash kabi usullar qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "maktabgacha va maktab ta'limini prognozlash" tushunchasining iqtisodiy mazmuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'limga bo'lgan ehtiyojni stsenariyli-stoxastik modellar asosida oldindan aniqlash, shu orqali ta'lim infratuzilmasiga investitsiyalarni, pedagogik kadrlar tayyorlash hajmini va ta'lim xizmatlarini hududlar kesimida optimal taqsimlashga xizmat qiluvchi iqtisodiy-analitik jarayon nuqtai-nazaridan takomillashtirilgan;

maktabgacha va maktab ta'lim xizmatlari ko'rsatish jarayonida sinergik samaradorlikni baholash usuli davlat-xususiy sheriklik ($0,25 \leq DXSh \leq 0,35$), ijtimoiy kapital ($0,35 \leq IK \leq 0,45$) va texnologik infratuzilma ($0,30 \leq TI \leq 0,40$) o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchining maqbul nisbatlari chegarasini aniqlash orqali takomillashtirilgan;

Qashqadaryo viloyati uchun 2029-yilga qadar maktabgacha va maktab ta'limi xizmatlarini rivojlantirish ($XR \leq 83$ foiz), raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish ($RT \leq 1,95$ baravar), o'qituvchilarning raqamli kompetensiya indeksi ($RKI \leq 0,82$) o'sish chegaralari prognoz qilingan;

Qashqadaryo viloyatida maktabgacha va maktab ta'limi xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha optimistik, pessimist va inertsion stsenariy variantlari asosida 2029-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktabgacha va maktab ta'limini boshqarish va hududiy rivojlantirish uchun raqamli iqtisodiyot sharoitiga mos kompleks konseptual model ishlab chiqilgan;

ushbu model asosida Qashqadaryo viloyati ta'lim tizimini boshqarishda raqamli texnologiyalar va hududiy infratuzilma omillarini integratsiyalash orqali rejalashtirish mexanizmlari amalda qo'llash imkoniyati yaratilgan;

davlat-xususiy hamkorlik, ijtimoiy kapital va texnologik infratuzilma o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchi asosida sinergik samaradorlikni baholash usuli ishlab chiqildi va Qashqadaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'lim xizmatlariga amaliy tadbiiq etilgan;

ta'lim tizimini rejalashtirish va sifatini oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar bo'yicha empirik regressiya modeli shakllantirildi va statistik asosda tahlil qilingan;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, investitsiyalar hajmi, ta'lim muassasalari soni va pedagogik kadrlar sifatining ta'lim sifati natijalariga ta'siri aniqlanib, ularning o'zaro nisbatlari va ta'sir kuchi amaliy tavsiyalar shaklida taklif etilgan;

2025-2029-yillar uchun Qashqadaryo viloyatida maktabgacha va maktab

ta'limi xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha ssenariyli prognoz variantlari ishlab chiqilgan;

rivojlanishning optimistik, pessimist va inertsion variantlari ishlab chiqilib, har bir variant uchun investitsiya hajmi, texnologik modernizatsiya darajasi va kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika qo'mitasi hamda Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi malumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi to'g'risidagi malumotlar bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida maktabgacha va maktab ta'limini boshqarish va rivojlantirishning kompleks konseptual modeli ishlab chiqilib, hududiy infratuzilma va boshqaruv indikatorlari o'zaro integratsiyalashgan holda nazariy asoslandi.

Empirik modellashtirish va sinergik samaradorlikni baholash usullari asosida Qashqadaryo viloyatida ta'lim xizmatlari sifatini oshirish va rejalashtirish bo'yicha amaliy mexanizmlar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari viloyat darajasida ta'lim siyosatini optimallashtirish, investitsiya oqimlarini samarali yo'naltirish va davlat-xususiy hamkorlikni kuchaytirish uchun ilmiy va amaliy asos sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan quyidagi ilmiy yangiliklar amaliyotga taqdim etilgan va joriy qilingan:

uslubiy yondashuvga ko'ra «maktabgacha va maktab ta'limini prognozlash» tushunchasining iqtisodiy mazmunini maktabgacha va umumiy o'rta ta'limga bo'lgan ehtiyojni stsenariyli-stoxastik modellar asosida oldindan aniqlash, shu orqali ta'lim infratuzilmasiga investitsiyalarni, pedagogik kadrlar tayyorlash hajmini va ta'lim xizmatlarini hududlar kesimida optimal taqsimlashga xizmat qiluvchi iqtisodiy-analitik jarayon nuqtai-nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ishlanmalarni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining 13.02.2025-yildagi 05/6-5-912-son, Qashqadaryo viloyati hokimligining 10-10/9811-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida talabalarda ta'lim infratuzilmasiga investitsiyalarni, pedagogik kadrlar tayyorlash hajmini va ta'lim xizmatlarini hududlar kesimida optimal taqsimlashga xizmat qiluvchi iqtisodiy-analitik jarayon nuqtai-nazaridan takomillashtirilgan «maktabgacha va maktab ta'limini prognozlash» tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

maktabgacha va maktab ta'lim xizmatlari ko'rsatish jarayonida sinergik samaradorlikni baholash usuli davlat-xususiy sheriklik ($0,25 \leq DXSh \leq 0,35$),

ijtimoiy kapital ($0,35 \leq IK \leq 0,45$) va texnologik infratuzilma ($0,30 \leq TI \leq 0,40$) o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchining maqbul nisbatlari chegarasini aniqlash orqali takomillashtirish taklifi Qashqadaryo viloyati hududiy ta'lim boshqarmasi tasarrufidagi ta'lim muassasalariga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining 13.02.2025-yildagi 05/6-5-912-son, Qashqadaryo viloyati hokimligining 10-10/9811-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ta'lim xizmatlarida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik samaradorligi ko'rsatkichlari aniqlandi va baholash mexanizmlari ishlab chiqildi. Innovatsion texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyalash darajasi va natijalariga ta'sirini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi shakllantirildi. Ta'lim tizimida ijtimoiy kapitalni faol jalb qilish orqali o'quv jarayonining mazmuni va sifatini yaxshilashga mo'ljallangan amaliy mexanizmlar yaratilgan, shuningdek, o'quv materiallari va resurslarni raqamli vositalar orqali modernizatsiya qilish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Qashqadaryo viloyati uchun 2029-yilga qadar maktabgacha va maktab ta'limi xizmatlarini rivojlantirish ($XR \leq 83$ foiz), raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish ($RT \leq 1,95$ baravar), o'qituvchilarning raqamli kompetensiya indeksi ($RKI \leq 0,82$) o'sish chegaralari prognozidan foydalanish taklifi Qashqadaryo viloyati hududiy ta'lim boshqarmasi tasarrufidagi ta'lim muassasalariga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining 13.02.2025-yildagi 05/6-5-912-son, Qashqadaryo viloyati hokimligining 10-10/9811-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida 2024–2029-yillarga mo'ljallangan prognozlar umumta'lim maktablari uchun strategik rejalashtirish va resurslarni aniq yo'naltirish, o'qituvchilarning raqamli salohiyatini oshirish, raqamli va ijodiy kompetensiyalarini kuchaytirish, darslarni zamonaviylashtirish, hududiy tenglik va ijtimoiy adolatni ta'minlash, ta'lim sifatini ilmiy asosda barqaror oshirish mexanizmini yaratish uchun hududdagi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish imkonini yaratgan;

Qashqadaryo viloyatida maktabgacha va maktab ta'limi xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha optimistik, pessimist va inertsion stsenariy variantlari asosida 2029-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari Qashqadaryo viloyati hududiy ta'lim boshqarmasi tasarrufidagi ta'lim muassasalariga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining 13.02.2025-yildagi 05/6-5-912-son, Qashqadaryo viloyati hokimligining 10-10/9811-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida regressiya modeliga asoslangan tahlillar orqali ta'lim tizimini rivojlantirish uchun eng muhim omillar ustuvorligi aniqlanib, ta'lim tizimida innovatsion salohiyat va bilimlar iqtisodiyoti ko'rsatkichlarini oshirish uchun zarur bo'lgan resurslar taqsimotini optimallashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta

ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan 5 ta xalqaro hamda 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi, Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 147 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi aks ettirilgan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**Mintaqada maktabgacha va maktab ta'limi tizimini modellashtirishning nazariy-uslubiy asoslari**" nomli birinchi bobida raqamli iqtisodiyot sharoitida maktabgacha va maktab ta'lim tizimini modellashtirishning nazariy asoslari, maktabgacha va maktab ta'lim tizimini modellashtirishning tamoyillari va maktabgacha va maktab ta'lim tizimini ekonometrik modellashtirishning xorij tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash tadqiq qilingan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim tizimini modellashtirishning asosiy maqsadi bu modellar yordamida ta'lim jarayonidagi turli omillar va ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini aniqlash, qolaversa bu orqali ta'lim sifati va samaradorligini kuchaytirish imkoniyatlarini topishdan iborat.

Stsenariyli-stoxostik modellar – bu kelajakning noaniq holida iqtisodiy jarayonlarni prognoz qilish hamda muhim qarorlar qabul qilishi uchun qo'llaniladigan muqobil xarakterga ega stsenariylar (ular optimistik bo'lishi ham mumkin, bazaviy hamda pessimistik ham bo'lishi mumkin) va tasodifiy omillar (ehtimollik taqsimotlari asosida baholash)ni birgalikda hisobga oladigan modellashtirish hisoblanadi. Bunda stsenariyli qismi tashqi muhitdagi turli variantlarni ko'rib chiqsa stoxostik qismi esa modelning parametrlariga tasodifiylik va ehtimollik taqsimotlarini kiritib beradi.

$$Y_t^{(s)} = f(Y_t^{(s)}) \quad (1)$$

Qolaversa, stsenariyli model deterministik prognozning kengaytirilgan shakli

hisoblanib, u (1) formula orqali ifodalanadi.



1-rasm. Maktabgacha va maktab ta'limida boshqaruv indikatorlari tizimi⁶

1-rasm maktab yoki maktabgacha ta'lim sifati faqat o'qituvchi, o'quv dasturi, yoki resurslar sifatiga bog'liq emasdir. Balki, boshqaruv indikatorlari (o'zlashtirish, qamrov, malaka darajasi va h.k.) va hududiy infratuzilma omillari (maktab binolari, raqamli texnologiyalar, transport va aloqa imkoniyatlari) birgalikda uyg'un ishlasa,

⁶ Muallif ishlanmasi

ta'lim samaradorligi sezilarli darajada oshadi, hududlararo tafovutlar kamayadi hamda umumiy tizim sifatli yanada barqaror rivojlanadi. Boshqaruv indikatorlari va infratuzilma o'zaro bog'liqligining sxematik modelini quyidagi 2-formula bilan belgilab olishimiz mumkin:

$$T_s = f(B_i * H_{ik}) \quad (2)$$

Bu yerda, T_s – ta'lim sifati, B_i – boshqaruv indikatorlari, H_{ik} – hududiy infratuzilma imkoniyatlari. Formulaga ko'ra, indikatorlar ko'rsatkichlari yaxshi bo'lsa, ammo infratuzilma sust bo'lsa, rivojlanish ham cheklangan bo'ladi.


Agar infratuzilma mukammal bo'lsa, lekin indikatorlar (masalan, o'qituvchi malakasi yoki o'zlashtirish darajasi) past darajada bo'lsa, ta'lim sifati ham baribir oshmaydi. Albatta ikkalasi ham birgalikda kuchaysa optimal natijaga erishiladi. O'zaro bog'lanishni ta'minlash uchun esa har bir hudud uchun o'zlashtirish darajasi, qamrov darajasi, malaka darajasi kabi indikatorlarni tahlil qilish kerak.

Infratuzilma omillari hamda biznes jarayonlarining o'zaro ta'sirini kompleks tarzda baholash uchun konseptual model ishlab chiqildi. Bu model infratuzilma va biznes jarayonlari orasidagi bog'liqlikni tizimli yondashuvlar asosida modellashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, natijaviy ko'rsatkich quyidagi umumiy funksional bog'lanish yordamida ifoda etiladi:

$$K=f(B_1, B_2, B_3, B_4, B_5) \quad (3)$$

bu yerda, K – infratuzilma omillari va biznes jarayonlarining o'zaro integratsiyalashuvi natijasida shakllanadigan kompleks natijaviy ko'rsatkich;

$f(B_1, B_2, B_3, B_4, B_5)$ – infratuzilma, biznes jarayonlari hamda ularning o'zaro ta'siri asosida yuzaga keluvchi murakkab funksional bog'lanishni ifodalaydi. Bu funksiyani quyidagicha uchta blokka ajratib olamiz:



2-rasm. Infratuzilma omillari va biznes jarayonlarini o'zaro bog'liqligi⁷

Ajratib olingan funktsiyani kompleks algoritmi quyidagi (4) modelga keladi.

$$K_i = \beta_0 + \beta_1 I_{1i} + \beta_2 I_{2i} + \beta_3 I_{3i} + \beta_4 I_{4i} + \beta_5 I_{5i} + \gamma_1 B_{1i} + \gamma_2 B_{2i} + \gamma_3 B_{3i} + \gamma_4 B_{4i} + \gamma_5 B_{5i} + \delta_1 IB_{1i} + \delta_2 IB_{2i} + \delta_3 IB_{3i} + \delta_4 IB_{4i} + \delta_5 IB_{5i} + \varepsilon_i \quad (4)$$

Bu yerda, K_i – i-hudud, i – ta'lim muassasi yoki i -vaqt kesimida kompleks natijaviy ko'rsatkich; I_{1i}, \dots, I_{5i} – infratuzilma omillari ko'rsatkichlari; B_{1i}, \dots, B_{5i} – biznes jarayonlari ko'rsatkichlari; IB_{1i}, \dots, IB_{5i} – infratuzilma va biznes integratsiya ko'rsatkichlari; β_0 – erkin had; β, γ, δ – mos ravishda infratuzilma, biznes jarayonlari va integratsiya omillarining baholanadigan regressiya koeffitsientlari; ε_i – modelga kiritilmagan omillar ta'sirini ifodalovchi tasodifiy xatolik a'zosi.

⁷ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

(4) formuladan modelni oddiy ko‘rinishda (5) belgilab olamiz:


$$K_i = \beta_0 + \sum_{k=1}^5 \beta_k I_{ki} + \sum_{m=1}^5 \gamma_m B_{mi} + \sum_{n=1}^5 \delta_n I B_{ni} + \varepsilon_i \quad (5)$$

(5)-modelni, interaktiv ko‘paytmalar orqali ifodalasak, model kontseptual model ko‘rinishni hosil qiladi. Ta’lim tizimi uchun kompleks kontseptual model – bu maktabgacha, maktab va oliy ta’lim tizimi ichidagi barcha asosiy omillar, ularning o‘zaro ta’siri, rivojlanish tendensiyalari, va natijalarga ta’sir qiluvchi jarayonlarni nazariy asosda ifodalovchi tizimli murakkab interaktiv regressiya modeldir va u (6) ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$K_i = \beta_0 + \sum_{k=1}^5 \beta_k I_{ki} + \sum_{m=1}^5 \gamma_m B_{mi} + \sum_{n=1}^5 \delta_n I B_{ni} + \sum_{k=1}^5 \sum_{m=1}^5 \theta_{km} (I_{ki} \times B_{mi}) + \varepsilon_i \quad (6)$$

Bu yerda, $(I_{ki} \times B_{mi})$ interaktiv ko‘paytma, θ_{km} – infratuzilma va biznes ko‘rsatkichlari o‘zaro ta’sir koeffitsientlari.

Dissertatsiyaning “**Maktabgacha va maktab ta’limi tizimi sifatini tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida Qashqadaryo viloyati maktabgacha va maktab ta’limi tizimi sifatining tahlili, Qashqadaryo viloyati maktabgacha va maktab ta’lim tizimini indikativ rejalashtirish tahlili va Qashqadaryo viloyati maktabgacha va maktab ta’lim xizmatlarini sinergik samaradorligini baholangan.




3-rasm. Maktabgacha va maktab ta’lim tizimining sifat ko‘rsatkichlari ⁸

⁸ Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

3-rasm ta'lim jarayonini tashkil etish, darslarning sifatli va samarali o'tkazilishi, ta'lim rejaları, dars jadvalining moslashuvchanligi va darslarda talabalarning faolligini ifodalaydi.

Yangi texnologiyalarning qo'llanilishi, raqamli texnologiyalar, interaktiv vositalar va zamonaviy usullar yordamida darslar o'tkazish, o'quv dasturlari sifati, o'quv rejalarining mosligi, o'quv dasturlarining talabalarning ehtiyojlariga, bozor talablari va jamiyat ehtiyojlariga mos kelishi ta'lim sifatini oshiradi.

Qolaversa, ta'lim tizimidagi innovatsion va raqamli transformatsiya yordamida uzluksiz, moslashuvchan hamda natijaga yo'naltirilgan ta'lim modelini shakllantirishning konseptual asoslarini ilmiy jihatdan ham asoslab beradi. Ta'lim jarayonida o'rgatilgan ko'nikmalarning oliy ta'lim muassasasiga kirishga talab qilingan darajasi ahamiyatga ega. Bu sifat ko'rsatkichlari ta'lim muassasalarini baholash, ularning ta'lim xizmatlarini yaxshilash va raqobatbardoshlik darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim sifati monitoring qilinib, ushbu ko'rsatkichlarga ko'ra yaxshilash choralari ko'rilishi mumkin. Yangi holatni institutsionalizatsiya qilish transformatsiya qilingan ta'lim tizimi yangi normalar, standartlar va qonunchilik asosida mustahkamlanadi.




4-rasm. Maktabgacha va maktab ta'lim tizimida ta'lim usullarini boshqaruv jarayonini biznes bilan bog'liqligi⁹

Davlat va nodavlat institutlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va tizimlashtiriladi. Bu doimiy aylanuvchi tsikl – chunki transformatsiya bir martalik emas, balki doimiy rivojlanish va moslashuv jarayoni sifatida qaraladi.

⁹ Ilmiy tadqiqotlarga asoslanib muallif tomonidan ishlangan

4-rasm ta'limdagi usullarni boshqarish jarayoni ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning muvaffaqiyatini ta'minlash hamda ularning ehtiyojlarini inobatga olish uchun muhimdir. Ta'lim jarayonining turli bosqichlarida o'quvchilarning rivojlanishini ta'minlash maqsadida maxsus metod va uslublardan foydalaniladi.



5-rasm. Ta'lim xizmatlarini Blended learningsiyalashda sinergetik samaraga erishish usullari, bosqichlari va natijasining o'zaro bog'liqligi¹⁰

Ushbu 5-rasm ta'lim va tarbiya jarayonida sinergiya va kompleks yondashuvning ahamiyatini ochib beradi. Kelajak yosh avlodini tarbiyalash jarayonida bilimlilik, kreativ yondashuvchanlik hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash muhim o'rin egallashi qayta-qayta ta'kidlangan. Qolaversa sinergetik samaradorlikning matematik jihatlaridan quyidagi (7) formula ko'rinishida ifodalash ham mumkin:

$$S = \sum_{i=1}^n (AS_i + \theta_i) \quad (7)$$

¹⁰ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

Bu yerda, AS_i – har bir alohida tizim/omilning samaradorligi, θ_i – sinergetik ta'sir natijasida qo'shimcha orttirilgan samaradorlik (musbat sinergetik efekt). Agar $\theta_i > 0$ bo'lsa, demak tizimlar o'rtasida sinergetik samaradorlik mavjud.

Tadqiqotimizda maktabgacha va maktab ta'lim xizmatlari ko'rsatish jarayonida sinerjik samaradorlikni baholash metodikasi ilk bor ko'p omilli integratsion-chegaraviy yondashuv asosida takomillashtirildi. Qolaversa davlat-xususiy sheriklik ($0,25 \leq DXSh \leq 0,35$), ijtimoiy kapital ($0,35 \leq IK \leq 0,45$) hamda texnologik infratuzilma ($0,30 \leq TI \leq 0,40$) orasidagi o'zaro ta'sir kuchining maqbul nisbatlari miqdoriy jihatdan ham aniqlashtirildi. Mazkur yondashuvlar an'anaviy alohida indikatorli baholashdan ko'ra ta'lim xizmatlari samaradorligini omillar yig'indisi sifatida emas, balki ularning o'zaro multiplikativ hamda sinerjik ta'siri natijasi sifatida talqin etadi.

1-jadval

Ta'lim tizimida sinergetik ta'sir va samaradorlik ko'rsatkichlari formulalari¹¹

Formula nomi	Formula	Izoh
Sinergetik ta'sirni umumlashtiruvchi integral koeffitsenti	$I_{st} = \sqrt[3]{I_b \cdot I_k \cdot I_m}$	I_b, I_k, I_m – talabalar (o'quvchilar) bilimi, ko'nikmasi va malaka darajalaridagi sinergetik tasirlarni tavsiflovchi integral koeffitsentlar
Iqtisodiy sohadagi sinergetik tasirlarni tavsiflovchi integral koeffitsent	$I_{iq.sam.} = \frac{IS_1}{IS_2}$	IS_1 – joriy sinergetik chora-tadbirlar amalga oshirilgandan so'ng talim xizmatlari iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi; IS_2 – bazis davridagi sinergetik chora-tadbirlar amalga oshirilgandan so'ng talim xizmatlari iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi;
Sinerjiya koeffitsienti	$S = \frac{P_b}{P_1 + P_2 + \dots + P_n}$	P_b – tizim yoki jarayonning birgalikda ishlashi natijasidagi samaradorlik; P_1, P_2, P, \dots, P_n alohida komponentlarning samaradorligi.
Samaradorlik o'lchovi	$E = \frac{Q_t}{I_t + I_r}$	Q_t – ta'lim sifati yoki talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar darajasi; I_t – o'qituvchilarning kiritgan hissasi (mehnati, yondashuvlari, malakasi); I_r – ta'lim infratuzilmasi va resurslar.
Umumiy ta'lim samaradorligi	$T = f(O_t, S_r, I_t, T_e)$	O_t – o'qituvchilarning tajribasi va bilimlari; S_r – talabalarning motivatsiyasi va faolligi; I_t – ta'lim infratuzilmasi va resurslari; T_e – texnologiyalarning o'quv jarayoniga integratsiyasi

¹¹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

1-jadval sinergiyaga bag‘ishlangan ilmiy manbalarni o‘rganish ta‘lim xizmatlarining sifatini oshirish yo‘nalishida, ichki hamda gorizontal yo‘nalishdagi integratsiyaning sinergetik samaradorligini baholashning maqbul metodologiyasi mavjud emasligini ko‘rsatib beradi.

Sinergetik va sinergik modellar asosida maktabgacha va maktab ta‘limi jarayonini tashkil etish – bu tizim elementlari o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirlarni uyg‘unlashtirish va tartibli rivojlanishga erishishdir. Bunda kichik o‘zgarishlar ham umumiy tizim samaradorligini sezilarli oshiradi. Bu esa, o‘z navbatida, raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar sharoitida zamonaviy va barqaror ta‘lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

2-jadval

Innovatsiya va raqamlashtirishni tashkil etish bosqichlari (sinergetik va sinergik asosda)¹²

Bosqich	Mazmuni	Sinergetik ta‘sir	Sinergik natija
Raqamli infratuzilma yaratish	Maktabgacha va maktab ta‘lim muassasalarini internet, Wi-Fi, kompyuterlar, planshetlar bilan ta‘minlash.	Tizim o‘zgaruvchan tashqi sharoitlarga tez moslashadi.	Texnologik va metodik komponentlar uyg‘unlashadi.
Innovatsion platformalar ni joriy etish	E-learning, LMS (Learning Management System), onlayn test tizimlari.	Ta‘lim texnologik innovatsiyalarga asoslanadi.	Ta‘lim va texnologiya samarali birlashadi.
O‘qituvchilarni raqamli kompetensiyasini oshirish	IT ko‘nikmalar va onlayn ta‘lim metodikalari bo‘yicha muntazam treninglar.	Kadrlar salohiyati oshib, tizim ichki barqarorlikni topadi.	Pedagoglar va texnologik imkoniyatlar bir-birini to‘ldiradi.
Individual ta‘lim traektoriyalarini yaratish	Har bir bola uchun moslashtirilgan raqamli o‘quv rejalari.	Shaxsiylashtirilgan ta‘lim orqali tizim o‘z-o‘zini rivojlantiradi.	O‘quvchi, o‘qituvchi va texnologiya sinergiyasi kuchayadi.
Monitoring va feedback tizimini yaratish	O‘quvchilarning rivojlanishini real vaqt rejimida monitoring qilish.	Tizim o‘z-o‘zini baholab va yangilab boradi.	Malaka va sifatni avtomatik oshirish uchun imkoniyat yaratiladi.

2-jadval esa ko‘rsatilgan 5 ta bosqich maktabgacha va maktab ta‘limi tizimida innovatsiyalar va raqamlashtirishni sinergetik va sinergik yondashuvlar asosida bosqichma-bosqich tashkil etish mexanizmini ifodalaydi. Har bir bosqich alohida mustaqil ahamiyatga ega, lekin ular ketma-ket va uzviy bog‘langan, birgalikda esa kompleks tizimli o‘zgarishni shakllantiradi. Bu yondashuvda tizim har bir omilning o‘zaro ta‘siri orqali mustahkamlanadi. Sinergetik ta‘sir (ichki dinamik kuch) da Har bir bosqich tizimning moslashuvchanligi, barqarorligi va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatini oshiradi. Innovatsiya va raqamli yechimlarning joriy etilishi orqali ta‘lim tizimi doimiy evolyutsiya holatiga kiradi. Bu orqali raqamli infratuzilma yaratish orqali maktablar zamonaviy texnologiyalarga moslashadi. Innovatsion platformalar

¹² Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

esa o'quv jarayoniga mos ravishda texnologik yechimlarni olib kiradi. Natijada, tizim chetdan majburan yangilanmaydi, balki ichki ehtiyojlardan kelib chiqqan holda o'z-o'zini modernizatsiya qiladi.

Sinergik natija (ko'paytiruvchi ta'sir) Sinergik yondashuv alohida harakatlarning oddiy yig'indisidan ko'proq natija beradi. Tizim elementlari birgalikda ishlaganda kuchaytiruvchi effekt yuzaga keladi. Texnologiyalar, metodikalar va inson resurslari o'zaro uyg'unlashadi va natijalar bir necha baravar oshadi. O'qituvchilar raqamli kompetensiyasining oshishi + innovatsion platformalar = o'quvchilarda mustaqil o'rganish qobiliyatining kuchaytiradi. Monitoring tizimi esa ushbu sinergiyani doimiy o'lchab, optimallashtirib boradi.

Dissertatsiya ishining **“Mintaqada maktabgacha va maktab ta'limi sifati oshirish istiqbollari”** nomli uchinchi bobida maktabgacha va maktab ta'lim tizimini rivojlantirishni empirik modellashtirish, Qashqadaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'lim tizimi sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar va Qashqadaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'lim xizmatlar sifatini oshirishni prognoz variantlari ko'rib chiqilgan.

3-jadval.

Qashqadaryo viloyati umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish tarmoqlari va unga ta'sir etuvchi omillar¹³

Yillar	Umumta'lim maktab bitiruvchilarining OTM ga kirishi (donaga)	Umumta'lim muassasalarining o'qituvchilari soni (ming. kishi)	Umumta'lim muassasalari soni (dona)	Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi (mlrd. so' mda)	Umumta'lim muassasalarida o'quvchilar soni (ming)	Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (ming so' m)	Yashash va o'qatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi (mlrd so' mda)	Axborot va aloqa sohasidagi xizmatlar hajmi (mlrd so' mda)	Sog'liqlik saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi (mlrd so' mda)	Doimiy aholi soni (mlrd. kishi)
	y	x1	x2	x3	x4	x5	x6	x7	x8	x9
2010	322	52,7	1116	33,9	500,6	1896,4	5,8	649	8	2,62
2011	366	52,2	1115	41	492,2	2599	9	116,7	10,3	2,72
2012	431	51,0	1119	52,7	477,3	3096,7	11,1	168,2	14,9	2,78
2013	447	49,8	1122	70,5	476,4	3685,7	16,1	206,4	20,6	2,83
2014	471	48,0	1122	89,8	477,5	4179,4	20,9	241,2	28,2	2,9
2015	520	46,2	1124	104,3	485,7	4642,7	29	279,4	38,3	2,96
2016	571	46,2	1125	118,2	495,2	5498,4	158,3	331,5	44,4	3,03
2017	611	47,8	1123	172,5	543,5	6788,9	183,3	372,8	60,2	3,09
2018	798	51,7	1122	231,7	601,4	8135,6	196,9	432,2	81,4	3,15
2019	897	55,4	1141	262,6	628,9	9525	266	440,5	120,4	3,21
2020	1705	57,6	1155	373,4	639,6	10607	293,2	496,1	125,8	3,28
2021	3175	58,7	1175	498,5	640,3	12597,9	370,2	608	176	3,34
2022	3963	59,7	1220	647	657,3	15054,4	490,9	780	210,9	3,41
2023	6472	61,2	1256	973,1	673,1	16366,7	13585,4	1083,4	441,5	3,48
2024	8575	65,4	1272	1282,9	682	18473,5	16595,6	1364,9	589,5	3,56

Statistik tanlagan ma'lumotlar oddiy ko'rinishda kuchli bog'liqlik bermaganligi uchun, logarifmlash orqali, bog'liqlik kuchaytirildi, model

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi va Qashqadaryo viloyat bo'limi ma'lumotlari yordamida muallif tomonidan tuzildi.

chiziqlanadi va statistik natija yaxshilanadi. Chunki real hayotdagi iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqliklar aslida to'g'ri chiziqli emas, balki logarifmik yoki boshqa egri chiziqli shaklda bo'ladi. 3-jadvalda 2010–2024 yillar davomida Qashqadaryo viloyatida ta'lim tizimi hajmi va sifati sezilarli o'sib, aholi daromadlari hamda axborot texnologiyalari va sog'liqni saqlash kabi tarmoqlarning rivoji ta'limga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rishimiz mumkin. O'qituvchilar va maktablar soni ortgani bilan birga, o'quvchilar sonining o'sishi ta'lim tizimiga yuklamani ham ko'paytirgan. Umuman olganda, ta'lim sifati o'sish tendensiyasida, bu esa iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy infratuzilmaning yaxshilanishi bilan chambarchas uzviy bog'ligini ko'rish mumkin.

4-jadval

Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish tarmoqlari va unga ta'sir etuvchi omillar¹⁴

Yillar	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni (dona)	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar soni (dona)	Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar soni (dona)	Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi (mlrd, so' mda)	Doimiy aholi soni (mlrd, kishi)	Umumta'lim muassasalarining o'qituvchilari soni (ming, kishi)	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari soni (dona)	1-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi (%)	Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (ming so' m)	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi (mlrd so' mda)	Axborot va aloqa sohasidagi xizmatlar hajmi (mlrd so' mda)	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi (mlrd so' mda)
	Y1	Y2	Y3	X1	X2	X3	X4	X5	X6	X7	X8	X9
2010	355	27908	29851	33,9	2,62	52,7	3226	8,3	1896,4	5,8	649	8
2011	363	28021	31256	41	2,72	52,2	3095	8	2599	9	116,7	10,3
2012	361	27149	36806	52,7	2,78	51,0	3047	7,2	3096,7	11,1	168,2	14,9
2013	337	26637	36258	70,5	2,83	49,8	3010	6,7	3685,7	16,1	206,4	20,6
2014	332	29889	37187	89,8	2,9	48,0	2951	7,2	4179,4	20,9	241,2	28,2
2015	332	30339	37720	104,3	2,96	46,2	2957	7,3	4642,7	29	279,4	38,3
2016	329	50464	40778	118,2	3,03	46,2	3068	12	5498,4	158,3	331,5	44,4
2017	329	58388	42195	172,5	3,09	47,8	3113	12	6788,9	183,3	372,8	60,2
2018	434	50204	47201	231,7	3,15	51,7	4487	10,7	8135,6	196,9	432,2	81,4
2019	482	66035	60936	262,6	3,21	55,4	5315	14,2	9525	266	440,5	120,4
2020	509	75924	74107	373,4	3,28	57,6	7387	16,1	10607	293,2	496,1	125,8
2021	524	82824	80419	498,5	3,34	58,7	7562	17,5	12597,9	370,2	608	176
2022	557	91834	91419	647	3,41	59,7	8321	18,7	15054,4	490,9	780	210,9
2023	651	180672	259115	973,1	3,48	61,2	13764	19,2	16366,7	13585,4	1083,4	441,5
2024	4216	202791	245821	1282,9	3,56	65,4	14294	20,9	18473,5	16595,6	1364,9	589,5

Bu 4-jadvalda 2010–2024 yillar davomida Qashqadaryo viloyatida maktabgacha ta'lim tizimi hajmi qolaversa sifati sezilarli o'sib borgan. Aholi daromadlari hamda axborot texnologiyalari va sog'liqni saqlash kabi tarmoqlarning rivoji ta'limga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rishimiz mumkin. O'qituvchilar hamda maktablar soni ortgani bilan birga, o'quvchilar sonining o'sishi ta'lim tizimiga yuklamani ham ko'paytirgan. Umuman olganda, ta'lim sifati o'sish tendensiyasida, bu esa iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy infratuzilmaning yaxshilanishi bilan chambarchas uzviy bog'ligini ham ko'rish mumkin.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi va Qashqadaryo viloyat bo'limi ma'lumotlari yordamida muallif tomonidan tuzildi.

5-jadval

Umumta'lim maktablarida ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi regressiya tahlilining natijasi¹⁵

Dependent Variable: Y				
Method: Least Squares				
Date: 01/22/26 Time: 10:09				
Sample: 2010 2024				
Included observations: 15				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X1	256,3743	40,31382	6,359465	0,0001
X4	-23,75887	4,589490	-5,176799	0,0006
X6	0,121539	0,035182	3,454547	0,0072
X7	2,146653	0,643015	3,338416	0,0087
X9	6121,129	931,8194	6,569007	0,0001
C	-18625,38	2168,028	-8,590933	0,0000
R-squared	0,991369	Mean dependent var		1954,933
Adjusted R-squared	0,986574	S,D, dependent var		2536,029
S.E. of regression	293,8465	Akaike info criterion		14,49317
Sum squared resid	777112,1	Schwarz criterion		14,77639
Log likelihood	-102,6988	Hannan-Quinn criter.		14,49015
F-statistic	206,7572	Durbin-Watson stat		1,943316
Prob(F-statistic)	0,000000			

Berilgan 3-jadvaldagi regressiya natijalari Eng kichik kvadratlar usuli bilan baholangan bo'lib, modelning umumiy sifati juda yuqori ya'ni 0,991 ga teng. Bu esa Y o'zgaruvchisidagi variatsiyaning 99,1% izohlanishini bildiradi. Barcha mustaqil o'zgaruvchilar X1, X4, X6, X7, X9 statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi ko'rinib turibdi, ya'ni ular Y ga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. X1 va X9 ijobiy, X4 esa manfiy ta'sirga ega. Modelning umumiy ahamiyatligi F-statistic orqali tasdiqlangan (Prob(F)=0,0000). Durbin-Watson 1,94 bo'lib, qoldiqlarda avtokorrelyatsiya muammosi yo'qligini ko'rsatadi.

6-jadval

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi regressiya tahlilining natijasi¹⁶

Dependent Variable: Y1				
Method: Least Squares				
Date: 01/22/26 Time: 14:13				
Sample: 2010 2024				
Included observations: 15				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X1	9,322088	1,844034	5,055269	0,0004
X4	-0,440548	0,159910	-2,754974	0,0187
X6	-0,207943	0,068920	-3,017144	0,0117
C	1817,622	466,8527	3,893352	0,0025
R-squared	0,845020	Mean dependent var		674,0667
Adjusted R-squared	0,802752	S,D, dependent var		985,1095
S.E. of regression	437,5124	Akaike info criterion		15,22327
Sum squared resid	2105588,	Schwarz criterion		15,41208
Log likelihood	-110,1745	Hannan-Quinn criter.		15,22125
F-statistic	19,99226	Durbin-Watson stat		1,446299
Prob(F-statistic)	0,000093			

¹⁵ EViews 13 paket dasturidan foydalanib muallif ishlanmasi

¹⁶ EViews 13 paket dasturidan foydalanib muallif ishlanmasi

6-jadvalda model sifatini ko'rsatkichi $R^2 = 0.845$ ligidan juda yuqori, model natijalarning 84.5 % ni tushuntirib beradi – bu juda kuchli bog'liqlikni ifodalaydi. Adjusted $R^2 = 0.845$ ligi yuqori aniqlikni ifodalab, mustaqil o'zgaruvchilar soni hisobga olinganda ham modelning izoh qobiliyati yuqori. F-statistic 20 ($p=0.000000$) ekanligi model umumiy jihatdan statistik ahamiyatlidir.

Durbin-Watson 1.45 qiymatdaligi esa qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjud emas, model barqaror. S.E. of regression 437.5 . Xatolik pastligi va model ishonchliligi ko'rsatadi.

7-jadval

Umumta'lim maktablarida sifatli ta'lim berish uchun qurilgan model koeffitsientlarining elastikligi¹⁷

Scaled Coefficients			
Date: 01/22/26 Time: 10:09			
Sample: 2010 2024			
Included observations: 15			
Variable	Coefficient	Standardized Coefficient	Elasticity at Means
X1	256,3743	0,592894	7,025726
X4	-23,75887	-0,770939	-6,863367
X6	0,121539	0,253385	0,133590
X7	2,146653	0,295996	0,554181
X9	6121,129	0,697788	9,677245
C	-18625,38	NA	-9,527375

7-jadval mustaqil o'zgaruvchilarning y ga nisbatan ta'sir kuchini va elastiklik darajasini baholash imkonini yaratadi. X9 omilning 1 foizga oshishi y ning 9.68 foizga oshishini, X1 (7,03) – Y ga kuchli ijobiy elastik ta'sir ko'rsatadi, X4 (–6,86) – Y bilan kuchli teskari elastik bog'liqlik mavjud. X7 (0,55) va X6 (0,13) – Y ga nisbatan past elastiklik darajasiga ega. X1 (7,03) – Y ga kuchli ijobiy elastik ta'sir ko'rsatadi. X4 (–6,86) – Y bilan kuchli teskari elastik bog'liqlik mavjud. X7 (0,55) va X6 (0,13) – Y ga nisbatan past elastiklik darajasiga ega.

Elastiklik tahliliga ko'ra, x1 ning 1% o'sishi y ni 9.32 % oshadi – bu eng muhim salbiy signal. X4 ning 1% o'sish esa y ni 3.7% kamayadi. X6 ning 1 foiz oshishi y ning 2.5 foiz kamayishini ifodalaydi.

¹⁷ EViews 13 dasturiga asosanib muallif tomonidan ishlangan

8-jadval

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifatli ta'lim berish uchun qurilgan model koeffitsientlarining elastikligi¹⁸

Scaled Coefficients			
Date: 01/22/26 Time: 14:14			
Sample: 2010 2024			
Included observations: 15			
Variable	Coefficient	Standardized Coefficient	Elasticity at Means
X1	9,322088	3,541000	4,565712
X4	-0,440548	-1,730248	-3,729563
X6	-0,207943	-1,130776	-2,532650
C	1817,622	NA	2,696501

Bu 9-jadvaldan ma'lumki ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi omillarning yuqori darajada aniqlikdaligini bildiradi. Barcha modellardagi determinatsiya koeffitsienti yuqori darajada bo'lib, bu tanlangan omillar natijani yaxshiligini ifodalaydi. Fisher mezonining yuqoriligi esa mdellarning umumiy ahamiyatga ega ekanligini ya'ni tenglamalarning statistik jixatdan ishinchliligini tasdiqlaydi. Durbin–Watson (DW) mezoni qiymatlari 1.35-1.94 oralig'ida bo'lib, bu qoldiqlarda jiddiy avtokorrelyatsiya muammosi yo'qligini yoki juda past darajada ekanligini anglatadi. Ayniqsa, 2 ga yaqin qiymatlar (Y va Y3) optimal holatni ifodalaydi.

9-jadval

Viloyat umumta'lim maktablarida va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirishning har bitta tarmog'i uchun qurilgan empirik modellar tahlili natijasi¹⁹

Empirik modellarning ko'rinishi	R ²	F	DW
$Y = -18625,38 + 256,37 * x_1 - 23,76 * x_4 + 0,12 * x_6 + 2,15 * x_7 + 6121,13 * x_9$	0.991	206,7572	1,94
$Y_1 = 1817.62 - 9.32 * x_1 - 0.44 * x_4 - 0.21 * x_6$	0.845	19.9923	1.45
$Y_2 = e^{10.51 * x_3 - 2.7 * x_4 + 1.08 * x_5^{0.75}}$	0.9694	115.9787	1.35
